

O'zbek Va Ingliz Tillaridagi "Mehnat" Konsepti Bilan Bog'liq Maqollarning Lisoniy Tahlili

Uzoqova Yulduzxon¹, Dilshodbek qizi²

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik misollar orqali til harakatida nisbatan faol bo'lgan ushbu ikki tildagi maqollarni topib, o'zaro bog'lagan holda mazkur tillardagi "mehnat" konseptini lisoniy tahlil etishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: paremiologik birliklar, mehnat, madaniyat, konsept, ekvivalent, ekspressivlik, semantika, mutanosiblik.

Maqollar xalqning ko'p yillik tajribasi, shodligi, sevinchi, qayg'usi, yig'isi, haqiqati aks etgan bebaho boylikdir. Har qaysi xalq maqollarida millatning ruhiy holati, dunyoqarashi, axloqiy me'yor va prinsiplari, milliy, madaniy qirralari ifodalanadi. Maqollar hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Shuning uchun ham maqollarda biror ortiqcha so'z, ortiqcha tavsifiylik uchramaydi. Chunki maqollardagi ixcham fikrning o'zi katta mohiyatga ega.

Professor Q.Sodiqov xalq maqollariga quyidagicha ta'rif beradi: "Maqol - xalqning yuz yil kuzatib, bir aytgan so'zi. Ularda xalqning falsafiy mushohadasi, olam, hayot va jamiyat haqidagi qarashlari, ularga munosabati aks etgan. Maqolning qudrati - u kishini tarbiyalaydi, hayotning past-balandi, oq-qorasi haqida saboq beradi. Ota so'zlarida bor narsaga parda ortidan qarash, nokasning aybini yashirish, xushomad, ko'z bo'yamachilik tushunchasi yo'q. Ular kishini tetik va irodali qiladi, hayotga to'g'ri ko'z bilan qarashni o'rgatadi. Xalqning bu dono fikrlari lo'nda va aniq jumalalarda berilishi bilan ham ajralib turadi."³

Boshqa xalq maqollarini o'rganish o'sha mamlakatning hayoti va madaniyati bilan tanishishga yordam beradi. Shuningdek, maqollar hayotda turli xil holatlardagi fikr va g'oyalarning bir-biriga o'xshashligini o'rgatadi. Jumladan, badiiy asar tarjimalarida bunday paremiologik birliklardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bilamizki, maqollarni bir tildan boshqa tilga o'girishda berilgan maqolga o'girilayotgan tilda ma'nosiga ko'ra muvofiq keluvchi boshqa bir maqoldan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki so'zma-so'z tarjima yaxshi samara bermaydi. Bu jarayonda har bir millatning milliy urf-odatlarini, madaniyati, turmush tarzidan kelib chiqqan holda ularga semantik tomondan to'g'ri yondasha bilish talab etiladi.

Maqollarni tahlil qilishda bir necha turfa mavzularni o'zida mujassam etgan maqollarga duch keldik. Shu jumladan, ingliz va o'zbek tilidagi "mehnat" konseptiga oid maqollar salmoqli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Har qanday yutuqning zamirida qattiq mehnat, tirishqoqlik yotadi. Mehnat qilib, o'z ehtiyojlarini qoplash nafaqat qadim zamonlarda, balki bugungi kunda ham dolzarblik kasb etadi. Dangasalik, ishyoqmaslik har doim qoralanib kelgan. Bunday masalalarga ingliz va o'zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi maqollarda o'z aksini topadi. Ulardan ayrimlarining tahliliga nazar solamiz. "All is over bar (but) the shouting". Bu maqolning so'zma-so'z tarjimasini quyidagicha: Bari ortda qoldi, vaqt shodlikka yetdi. Ushbu maqol o'zbek tilidagi quyidagi maqolga mos keladi:

^{1,2} Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti II bosqich talabasi

² Андижанский государственный университет старший преподаватель кафедры Национальной идеи, основ духовности и правового образования

³ Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. -Toshkent: SHARQ NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI. 2005.



Mehnat qancha og‘ir bo‘lsa,

Keti shuncha shirin bo‘ladi.

Yoki, ‘‘Mehnat, mehnatning tagi- rohat’’ kabi o‘zbek maqollarining ma‘nosida ishlatiladi. Yuqoridagi maqolda ‘‘og‘ir’’ va ‘‘shirin’’ so‘zlari ma‘no jihatdan zid qo‘yilib, o‘zaro antonimlik hosil qilgan. Mehnat odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik, o‘z-o‘zidan qanoat tuyg‘usini olib kirib, uni baxtiyor qiladi. I. Gyote aytganidek, mehnat qilgan va sabr qilgan kishiga chin baxtiyorlik oshno bo‘ladi.⁴ Mehnat, harakat bo‘lgan joyda, albatta, natija ham bo‘ladi, bo‘lganda ham natijasi rohat o‘laroq qalbingizga huzur bag‘ishlaydi. Bu ikki xalq paremiologik birliklarida ham shunday fikr ilgari surilgan.

Quyida yana bir maqol: ‘‘Doing is better than saying’’. Ushbu maqolning so‘zma-so‘z tarjimasi: Gapirgandan qilgan yaxshi. O‘zbekcha ekvivalenti esa: ‘‘Gap bilguncha ish bil’’. Mazkur maqollarda ishni gapirib emas, balki bajarib ko‘rsatish yaxshiroq ekanligiga urg‘u berilmoqda. ‘‘So‘zda bor, amalda yo‘q’’ qabilida qolib ketmaslikka chaqirilmog‘da.

‘‘Devil finds work for the idle hands to do, The’’. Mazkur maqolning so‘zma-so‘z tarjimasi: Shayton bo‘sh qo‘lga ish topib beradi. O‘zbekcha muqobili:

Dangasa boshin yesin,

Illatning g‘amin yesin.

Bilamizki, shayton so‘zining denotativ ma‘nosi Ilohning buyruqlariga bo‘ysunmagan va shuning uchun ham uning dargohidan badarg‘a qilingan salbiy farishta. Konnotativ ma‘nosi esa inson sodir etishi mumkin bo‘lgan barcha salbiy ishlarning homiysi. So‘z ko‘chma ma‘noda qo‘llanganda, inson tabiatidagi istalgan salbiy xususiyatni ifodalashi mumkin. Inglizcha maqolimizdagi bu so‘z (devil)da salbiy hissiy-ekspressiv uzv ifodalanmoqda. Ya‘ni asosiy bir mehnat bilan shug‘ullanmagan inson bekor vaqtini boshqa yomon ishlar bilan to‘ldiradi yoki vaqtini hech narsa qilmay bekor o‘tkazib hamma narsani qo‘lidan boy beradi, oxir-oqibat g‘am boshini yeydi. Maqolda ‘‘boshin’’, ‘‘g‘amin’’ so‘zlaridagi n qo‘shimchasi tushum kelishigi (-ni)ning qisqartma shakli bo‘lib, kontekstda so‘zlarni bog‘lash vazifasini bajarmoqda.

‘‘Folks lack no excuses, Idle’’. Mazkur maqolning so‘zma-so‘z tarjimasi: Dangasada bahonadan ko‘pi yo‘q. O‘zbek tilidagi esvivalenti:

Dangasaning vaji ko‘p,

Ohangsizning - avji.

Ushbu maqollarda ham dangasaning bahonasi ko‘pligi, ohangsizning avji ko‘pligiga parallel qo‘yilmoqda. Bu orqali ma‘no ta‘sirchanligi oshmoqda. Ko‘rishimiz mumkinki, ikkala xalq maqollarida ham dangasalik qoralanib, mehnatsevarlikka ijobiy baho berilgan. Yuqoridagi o‘zbek xalq maqoli ellipsis hodisasiga uchragan, ya‘ni ikkinchi komponentdagi ‘‘ko‘p’’ so‘zi tushib qolgan, lekin uning borligi maqolning shakl va ma‘nosida sezilib turadi.

Quyida yana bir qancha maqollarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

	Inglizcha maqol	O‘zbekcha ma‘nosi	O‘zbekcha ekvivalenti
1.	Idleness is the holiday of fools.	Bekorchilik - nodonlarning bayrami.	Bekorchilik - bemazachilik.
2.	Tongue of idle people is never idle, The.	Dangasaning tili sira dangasa bo‘lmas.	Dangasaga ish buyursang, senga aql o‘rgatar.
3.	Brain in the devil’s workshop, An idle.	Dangasa aqli - shayton ustaxonasi.	Ishchanlik to‘rga tortar, Yalqovlik go‘rga tortar.
4.	Business before pleasure.	Hordiqdan oldin mehnat.	Mehnat, mehnatning tagi - rohat.
5.	Head cook and bottle washer.	Ham bosh oshpaz, ham idish yuvuvchi.	Yigit kishiga yetmish hunar oz.

⁴ <https://www.ziyouz.com>



Yuqorida keltirilgan maqollar bir nechta sinonimlarga ega bo'lsa-da, ular kontekstda bir-birining o'rniga qo'llana olmaydi, aks holda semantik yoki uslubiy muvozanat taxminan buziladi. Ularning ma'nolari bo'yicha ekspressivlik ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi, binobarin, ular har xil holat, vaziyatlarda qo'llaniladi.

Ingliz va o'zbek maqollaridagi bir qancha o'xshashliklarga qaramay, mehnatga oid maqollarda farqlarni ham uchratishimiz mumkin. Ingliz maqollari, asosan, ishning amaliy va moddiy jihatlariga, masalan, unumdorlik va samaradorlikka qaratilgan. Masalan, "Time is money" degan maqolda moliyaviy muvaffaqiyatga erishish uchun vaqtdan unumli foydalanish muhimligi ta'kidlangan.⁵ O'zbek maqollarida esa halollik, chidamlilik kabi mehnatning ma'naviy-axloqiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Yuqoridagi maqollar bunga misol bo'la oladi.

Maqollarda turg'unlik elementlari uchray turadi, ammo turg'unlik ularning yagona, qat'iy xususiyati emas. Boshqa tomondan agar maqollarning tuzilishi boshqa tillarda ma'lum darajada flektivlik, ya'ni moslashuvchanlikni namoyon etsa, ular butunlay erkin emas, ya'ni hisobga olinishi kerak bo'lgan boshqa fenomenlar ham bor. Jumladan, misralardan iborat maqollarda qofiya san'atiga ham amal qilinadi va bir tildagi maqolning qofiyalarini tashkil qilgan ohangdosh so'zlar boshqa bir tilda umuman qofiyadosh bo'lmasligi mumkin.⁶ Aynan shu jihatlar maqollarning ta'sirchanligi, shakli, kompozitsiyasi, intonatsiyasida muhim o'rin egallaydi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, "mehnat" konsepti mavzusiga oid ingliz va o'zbek maqollari mehnatsevarlik, qat'iyatning ahamiyati jihatidan o'xshash taraflarga ega. Bu jarayonni o'rganish orqali maqollarda aks etgan madaniy qadriyatlar va e'tiqodlarni chuqurroq anglab, ularni hayotimizga tatbiq etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva N. "Maqol va hikmatli so'zlarning paremiologik maydoni" maqolasi.
2. Burxonov G. "Ish" konseptlik ingliz va o'zbek maqollarining o'xshash va farqli jihatlarini" maqolasi.
3. Karamatova K, Karamatov H. PROVERBS - MAQOLLAR - ПОСЛОВИЦЫ. "Mehnat" nashriyoti.-Toshkent.2000
4. Kurbanova M, Yo'ldashev M. Matn tilshunosligi.-Toshkent:Universitet. 2014
5. Madaliyev O, Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi.-Toshkent:SHARQ NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI. 2010
6. Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari.-Toshkent:SHARQ NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI. 2005
7. <https://www.proverbs.com>
8. <https://www.ziyouz.com>

⁵ Burxonova G. "Ish" konseptlik ingliz va o'zbek maqollarining o'xshash va farqli jihatlarini" maqolasi.

⁶ Abdullayeva N. "Maqol va hikmatli so'zlarning paremiologik maydoni" maqolasi.

